

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA‘MUN

AKADEMIYASI

AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2025-5/5

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2025

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof. Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof. Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof. Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof. Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad. Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof. Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof. Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots. Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos. Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d. Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof. Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x. Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d. Durdiev Gavhar Salayevna, arx.f.d. <i>Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.</i> Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof. <i>Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.</i> Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof. Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos. Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof. Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof. Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x. Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof. <i>Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc</i> Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof. Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos. Qutliyyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof. Lamers Jon, q/x.f.d., prof. Maykl S. Enjel, b.f.d., prof. Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x. Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof. Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof. Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD	Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d. Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent Pazilov Abduvayit, b.f.d., prof. Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos. Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos. Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof. Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof. <i>Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.</i> <i>Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.</i> <i>Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.</i> Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad. <i>Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.</i> Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d. Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof. Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos. Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof. <i>Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof. Tojiybayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad. Xolliyyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof. Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d. <i>Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.</i> Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof. Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos. Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof. <i>O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.</i> <i>O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.</i> Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d. <i>Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.</i> Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d. Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent
---	--

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№5/5 (126), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 302 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

© Xorazm Ma‘mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2025

Sirojiddinova Sh.S. Badiiy matn kontekstida mifologiya poetikasining roli va ahamiyati	102
Sultonova K.F. Botanik terminlarning struktur xususiyatlari	105
Suvanova M.X. Oilaviy-maishiy marosimlarga oid etnografizmlar tasnifi	109
Teshabayeva D.M., O'sarova M.A. Widespread use of english terms in uzbek brand names	111
Toirova U.S. Isajon Sultonning bo'ri hikoyasidagi bo'ri zoosemizmining xususiyatlar	114
To'rayeva S.Q. Xurshid Davron she'riyatida tarixiy siymolar obrazi	116
Turdiyeva G.A. His-hayajonni ifodalovchi til birliklarining o'rganilishi	118
Turdiyeva N.Yo. Transformation of Concepts in the Translation Process: A Study of William Shakespeare's Works	121
Tursunov M.M., Mirzayeva M.Z. O'zbek milliy kinofilmlarida qahramonlar obrazini yaratishda lisoniy hamda nolisoniy omillar tahlili	124
Tursunov M.M., Sharipova D.B. Characteristic features of Ted Hughes' poetry	127
Tursunov M.M., Cho'lliyeva M.X. Ingliz mediadiskursida "milliylik"ga aloqador obrazlar tahlili	130
Umurzoqova M.E. O'zbek lingvomadaniyatiga xos lisoniy shaxs tiplari xususida	133
Usmanova Z.I. Terminlarni tizimlashtirish — zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifasi sifatida	136
Usmonova D.S., Jurayeva Sh. Modern trends of conceptual metaphor study in cognitive linguistics	142
Usmonova Sh., Bozorboyeva X. Vaqt tushunchasining kognitiv va madaniy talqinini solishtirish	144
Usmonova O.S. Taom nomlari bilan bog'liq frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari	146
Vafoyeva M.R. Lexico-stylistic features of periphrasis in english journalistic discourse	149
Valiyeva N.D. Realism in english literature: a comprehensive examination	152
Xalilova Z.K. Hindiy tilidagi hisob va miqdor ifodalovchi so'zlar va ularning o'zbek tilidagi analoglari	154
Xamroyeva D.J. Abdulla Sher she'rlaridagi ba'zi obrazlarga tavsif	157
Xolmatova O.O., Xamdanova O.M. Hadis matnlarida qo'llanuvchi sifat so'z turkumi va ularning ma'no guruhlari	159
Xomidjonova M.O., Adamboyeva N. Ingliz va o'zbek tillarida varvarizmlarning o'ziga xos xususiyatlari va nutqda qo'llanish ahamiyati	161
Xudayberganova D.V. "Shum bola" qissasida keltirilgan ba'zi xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati	163
Xusanova G.Sh. Bolalar o'yin nomlarini shakllantirishda til va madaniyatning o'zaro ta'siri	166
Yaxshiboyeva G.O. Akademik mobillik sharoitida ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	168
Yo'ldasheva X.Q., Narzullayeva Ch.A. Sotsiolekt turlarining deytik xususiyati	172
Yo'ldosheva D.X. Pleonazm hodisasini o'rganishning kognitiv asoslari	176
Yuldasheva F.F. Lingvomadaniy jamiyatdagi estetik qadriyatlar o'zbek va rus tillari maqollari ko'zgusida	179
Yuldasheva M.A. Badiiy matnda alluziya: matnlaro ma'no sarguzashti	182
Yuldosheva S.T., Turayeva U.Sh. Scientific and theoretical basis of terms related economics	185
Yunusova G.D., Xujaeva U.T. Koreys tilida murojaat shakllarining tasnifi	188
Yusupova M.A. The role of women in society in uzbek and english literature: a comparative analysis of "O'tkan kunlar" by Abdulla Qodiriy and "Pride and prejudice" by Jane Austen	191
Yusupova G. Feministik tilshunoslik gender va til tadqiqotlarining asosi sifatida	194
Yusupova S.A., Isajonova D.D. Tilshunoslikda gradatsiyaning turlari va uning ahamiyati	197
Zaripov F.H. The role of linguistics in advertising and marketing: how language is used to influence and persuade consumers	199

ISAJON SULTONNING BO'RI HIKOYASIDAGI BO'RI ZOOSEMIZMINING XUSUSYATLAR

U.S.Toirova, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Bo'ri hikoyasidagi o'zbek milliy qadriyatlari va madaniy urf odatlari bilan chambarchast bog'liq bo'lgan xususiyatlar hayvon zoosemasi orqali ifodalanishi, hamda bo'rining oila sardori va boshlig'i, o'z xonadonini himoyachisi, qalqoni bo'lgani o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan xislatlarning namoyishidir. Maqolada keltirilgan xislatlar o'zbek erkaklariga xos bo'lgani alohida e'tirof etiladi.*

Kalit so'zlar: Zoosemizm, konnotatsiya, metafora, viqor, jonzot

Аннотация. *Выражение в волчьей истории через зоосему животных черт, тесно связанных с узбекскими национальными ценностями и культурными традициями, а также роль волка как вожака и главы семьи, защитника и щита своего хозяйства являются проявлениями черт, характерных для узбекского менталитета. Особо отмечается, что представленные в статье черты характера характерны для узбекских мужчин.*

Ключевые слова: Зоосемизм, коннотация, метафора, достоинство, существо

Abstract. The expression of features animal zoosemy closely related to Uzbek national values and cultural traditions in the wolf story and the wolf's role is depicted as the leader and head of the family, the protector and shield of his household and the characteristic traits of the Uzbek mentality. It is especially recognized that the features of wolf in the article are compared to Uzbek men.

Keywords: Zoosemy, connotation, metaphor, dignity, creature.

Kirish. Taniqli o'zbek yozuvchisi va adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam Isajon Sulton haqida shunday yozgandi:

"...Uning ijod yo'li anchagina o'ziga xos. Yozuvchi 90-yillarning boshlarida mo'jazzina kitobchasi - "Oydinbuloq" bilan ko'zga tashlanib, adabiy davralarni o'ziga bir qaratib olgach, hayot deb atalgan tubsiz va cheksiz teranliklarga sho'ng'ib ketgan bo'yi, 2010-yilda qator hikoyalar va romanlar bilan u ummondan bosh ko'targan ijodkordir".

Isajon Sulton yana bir tilga tushgan boshqa asarlaridan biri "Boqiy darbadar" romani haqida gapirarkan:

"Isajonni "Boqiy darbadar" asarini yozishga turtki bergan tuyg'u aynan qiyomatni favqulodda kuchli sezish, bu dunyo qadriyatlarining qiyomat degan ulkan tegirmonda yanchilishini ravon va jonli his etishdir. Xuddi mana shu tuyg'u "Boqiy darbadar" asarining dastlabki asosidir. Inson chalayotgan hayot degan kuyda darbadarlik ohanglari ustun ekanligini anglaydi yozuvchi".

Adabiyotshunos olim roman qahramonlaridan birining ichki dunyosiga kirib borar ekan, shunday xulosaga keladi:

"Ozod zohiran jo'n tuyuluvchi tabiat hodisalarining botinini ko'radi. Oddiy odam eshitishi mahol bo'lgan turfa tovushlarni tinglaydi. Dastlab uning fikru shuurida barcha ajdodlarimiz ham o'z qismatiga peshvoz borishgan emasmidi. Ehtimol, shu bois ham ular tabiatida itoatkorlik, jafokashlik, halimlik, shukronalik, qanoat tuyg'ulari shakllanmadimikin. Kishini ezuvchi mehnatdan qutilish chorasi bormi. Taqdirni o'z-gartirish imkoni-chi. Bag'ri qon qizg'aldoqlaru maysa-ko'katlar nega bahorga talpinishadi. Bu ham ertadan umidvorlik orzusi emasmikin. Bularning barchasida qanday ma'no yashirin. Umuman, odam bolasi dunyoga nima uchun keladi? - qabilidagi savollar shodasi charx uradi". "Ozod" romani inson umrining qadri haqida bitilgan.

Asosiy qism. Zoosemizm -bu hayvon ma'nosi bo'lib, inson xarakter xususiyatlarini yoritishda ishlatiladi. Hayvon xususiyatining metaforik yo'l orqali insonga ko'chishini o'z ichiga oladi.

Uni aqlli deydi. Hayvonlar orasida shugina bir marta juft tanlab, umrining oxirigacha o'sha jufti bilan hayot kechiradi. O'z makonining chegaralarini erinmay belgilab chiqib, bironta jonzot kirishiga yo'l qo'ymaydi.

Bo'rining aqlu zakovati oldida butun hayvonot olami o'jiz hisoblanadi. Uning ziyralligi hamda aql farosati haqida gapirar ekanmiz, hikoyadagi keltirilgan misol buning yaqqol namunasi bo'la

oladi. Uning umr yo'ldosh tanlashi, shu jufti bilan butun umr birga yashashi, o'z chegarasini ya'ni oilasini o'zi qo'riqlashi, oilasini himoya qilishi va uni ko'zqorachig'idek asrashi alohida e'tirof etilgan. Bo'ridagi bunday xususiyat uning oilaparvar, himoya qiluvchi mavjudot ekanligi bilan ajralib turadi.

U viqorli, ko'kragi keng, panjalari paydor, odam bolasi bilan o'ynashayotgan zuryodiga indamay qarab turardi. Ha, haqiqatan ham haybatli edi, ammo turishida tahdid sezmadim. Shunday bo'lsa-da, qo'rqqanim esimda. Saldan keyin past ovozda irillagan edi, bolasi talpanglay-talpanglay qoshiga chopib bordi.

So'ng ikkovlon bamaylixotir ortga burilishib. o'z yo'llariga ketishdi.

Bo'rining salobatli va kelbatli gavdasi, uning panjalarining keng va kattaligiga qaramay, inson uning bolasi bilan o'ynayotgan edi. Uning haybati va viqoridan inson qo'rqsa, bo'rda qo'rqish alomati also sezilmagan edi. Past ohangda ovoz chiqargan edi. Bolasi bo'rining ovozi tufayli uning yoniga kelib, uning orqasidan ergashdi. Umuman olganda bo'ri zoosemasidagi bu viqor uning dadilligi, o'ziga ishonuvchanligi va jasurligining mukammal namunasi sifatida ko'rinadi.

So'qmoq chetidagi raqibimning yollari pasaydi, ko'zini mendan uzib, tovush kelgan tomonga bir qarab qo'ydi. Shunda nigohidagi shiddatning g'oyib bo'lganini payqadim.

Ortiga tisarildi, ammo sira shoshmasdan, viqor ila o'girildiyu o'sha tomonga yo'rtib keta boshladi. E, tushundim! Bo'rilar oila bo'lib yashaydilar.

Uning ham oilasi bor-ku? Ha, bo'ri oila quradi. Nariroqda, to'qay ichkarisida ini bo'lsayam ajabmas.

Bo'rilarining oilasi uchun qiladigan har bir ishi tahsinga loyiq desak adashmaymiz. Uning ostonasiga qarab yo'l qo'ygan yo'lovchini ostonasiga borishga yo'l qo'ymasligi, har qanday holatga ularga qarshi kurashib, oilasini muhofaza qilishi, va ularga yaqin keladigan xavf va xatardan ogoh qilishi ularning oldidagi mas'uliyatli va javobgarlik ruhidagi bir burchi sanaladi. Ulardagi burchga sadoqatlilik, oilaparvarlik g'oyalari alohida ta'kidlanib borilgan.

Har holda, u yerda bir oila yashar, erkak bo'ri esa mening, ya'ni cho'l bag'rida o'zicha kuymalanib o'tin to'plab yurgan odamning qiyofasidagi xatarni sezib, yo'l yoqasiga bola-chaqasini himoya qilgani chiqqanga o'xshaydi.

Bo'rining erkagi mas'uliyatli va halol bo'lib, oilasi qutqarish va xatardan qo'riqlash uchun javobgar hisoblanadi. Bunday xususiyatlarning bo'rilarida sezilishi albatta ajablinarli holder. Xaqiqat shuki ular oila boshlig'i hamda o'z juftiga sadoqatli umr yo'ldosh va himoya qalqoni sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda ularning sezgi organlarida ham uzoqdan xavfni sezish, ulardan ogoh bo'lish kabi g'oyalr ham mavjud. Yov va begonalarning iniga yaqinlashishi ularni jahlini chiqarib, o'zini himoya qilishi kerakligini eslatadi. Begonalr ketgach o'zini xavfdan uzoq deb his qiladi va sokin nafas oladi. Umuman olganda bo'rini xavfdan ogoh qilishi kabi ma'nolari ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

Eskilardan qolgan bir gap bor, – dedi g'olibona. Keyin ko'rsatkich barmog'ini nuqib, uqtirdi: - Bo'rining tirnog'i omad keltiradi. Unutma!

O'zbek xalqining milliy qadriyatlariga asoslanib, ularning mentalitetini, qarashlarini, dunyoqarash hamda urf odatlarini o'z ichiga olgan.

Xulosa. Umuman olganda bo'rining xususiyatlari adib aynan erkak bo'rining mas'uliyatli harakati orqali uning erkinlikni, jasoratni, kuchlilikni oila sardori va boshlig'i sifatida berib, uning o'z oilasi uchun javobgar timsol sifatida namoyon qiladi. Bo'rining nafaqat sadoqati, balki uning oilasini himoya qilishi uchun qilingan say-harakati va uning oilasiga begonalrni, ayniqsa uning qo'rg'oniga begonalr qadam tashlashi ular uchun xavf-xatar hisoblanadi. Bo'ri semasida haqiaiy mard erkaklik g'ururi bor va oilasini uchun jonini beradigan inson xususiyatlari tasvirlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Toirova Umida Sobirovna. (2023). Sher zoosemism in uzbek works. Web of Teachers: Inderscience Research, 1(8), 168–176. Retrieved from <https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/345>
2. Toirova, U. (2022). Analysing of Cat Zoosemy in the Uzbek and English Works. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 14(14). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6804
3. Toirova, U. (2021). Maqollarda Zoosemizmlarning ingliz va o'zbek tillaridagi Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 1(1). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1953

4. Toirova Umida Sobirovna. (2023). The description of lion zoosemy in uzbek's novels. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 11, 36–12.
5. Umida Toirova, S. Ahmadning Qorako'z Majnun va P. Turnering Hachiko hikoyalarida it zoosemasida sadoqat timsoli, Центр научных публикаций (buxdu. uz): Том 19 № 19 (2022): Статьи и тезисы (buxdu. uz)
6. Toirova U. Said Ahmadning Qoplon va Roald Dahl ning "Beware of the Dog" hikoyalarida It zoosemasi berilishi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
7. Sobirovna T. U. O'zbek Asarlarida Sher Zoosemizmi //Diversity Research: Journal of Analysis and Trends. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 50-57.
8. Sobirovna T. U. It va mushuk zoosemizmi o'zbek asarlari talqinida //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 42. – С. 13-22.
9. Toirova, U. (2023). Normurod Norqobilovning "Dashtu dalalarda" asarida bo'ri zoosemasi. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 37(37).
10. Toirova, U. (2023). Ingliz romanlarida it zoosemasining turli xil talqini. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 34(34).

UO'K 81-13

XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA TARIXIY SIYMOLAR OBRAZI

S.Q.To'rayeva, talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli shoir Xurshid Davron she'riyatidagi tarixiy siymolar obrazi xususida fikr yuritiladi. Tarixiy siymolarni yoritishdagi shoir mahorati aniq misollar yordamida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Tarixiy shaxslar, Amir Temur, Tarobiy, qahramonlik, jasorat, milliy qadriyat, tarixiy yondashuv.

Аннотация. В данной статье рассматривается образ исторических личностей в поэзии известного поэта Хуршида Даврона. Мастерство поэта в освещении исторических личностей раскрывается с помощью конкретных примеров.

Ключевые слова: Исторические личности, Амир Темур, Тараби, героизм, мужество, национальная ценность, исторический подход.

Abstract. This article discusses the image of historical figures in the poetry of the famous poet *Khurshid Davron*. The poet's skill in illuminating historical figures is revealed with the help of specific examples.

Key words: Historical figures, Amir Temur, Tarabi, heroism, courage, national value, historical approach.

Kirish. Tarix har bir xalqning o'zini va o'zligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" [1] deganlaridek, endi Xurshid Davron ijodida ham tarixga, tariximizdagi buyuk ajdodlarimizga nazar solamiz. Albatta, tariximizni mukammal bilsakkina kelajagimizni mustahkam poydevor ustiga qura olamiz. Shoir ham o'z she'rlarida tarixni o'tmish voqealari sifatida tasvirlashi bilan bir qatorda, bugungi kun va kelajak uchun saboq manbasi sifatida yoritib beradi. Ushbu maqolada Xurshid Davron nafaqat shoir, balki tarixnavis bo'lganligiga ham amin bo'lamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarix mavzusida gap ketar ekan, esimizga beixtiyor Sohibqiron Amir Temur, Najmiddin Kubrolar kelishi, tabiiy. Shu mavzu xususida Ibrohim G'afurov[2], Qozoqboy Yo'ldoshev[3] kabilar o'z tadqiqot ishlarida fikr-mulohazalarini bildirib o'tishgan. Mavzuni o'rganish jarayonida struktural tahlil usuli hamda qiyosiy-tipologik tasniflash kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shoir o'tmishdagi buyuk shaxslarning faoliyatini nafaqat tarixiy faktlar orqali, balki badiiy vositalar bilan tasvirlashga intiladi. Uning she'rlarida, badiiy asarlarida Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Najmiddin Kubro, Tarobiy, Bobur kabi buyuk siymolarning insoniy va ma'naviy-ma'rifiy qirralariga alohida e'tibor qaratib yoritiladi. Shoirning tarixga qiziqishi, voqealar ichida xuddiki o'zi qatnashganday bo'lishi bu tarix bilan bog'liq bo'lgan turli xil kitoblarni mutolaa qilishi bilan bog'liq va buni o'z she'rida aytib o'tadi.

Tarix kitoblarin

Ko'p varaqladim,

Qonli so'qmoqlarni aylandim takror.